TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI 1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich

IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI 1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI 1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich

QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI 1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI 1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li

TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI 1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich

O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI 1182
Nazarova A.N.

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI 1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li

JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA) 1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna

O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI 1199
Tangrieva Farida Abdukarimovna

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI 1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna

YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH 1211
Sapayev Axmed Durdibayevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ 1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO‘JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH 1222
B.B.Seilbekov

O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO‘NALISHLARI 1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN’S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN) 1230
Sitora Tojiqulova Sobirjon qizi

BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO‘RSATKICHI TAHLILI 1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich

1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA’LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH 1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI 1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o‘g‘li

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЪЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ 1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG‘LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI 1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI 1264
Xusanova Gavhar

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA’MINLASH YO‘NALISHLARI 1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich

THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE 1276
Olimov Davron Olimovich

ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ 1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна

EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN’S PUBLIC UNIVERSITIES 1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich

ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA SAMARADORLIKKA TA’SIRI 1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna

DAVLAT QIMMATLI QOG‘OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA 1304
Rabiyev Akram Homitovich

AKTSIYADORLIK JAMIIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI 1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich

ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНЕ 1318
Худайберганова Зарофат Захидовна

К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ 1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI 1336
Norov Murodjon Maxmudovich

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O‘RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI 1351
Egamberdiyev Jonibek O‘ralovich

OLIY TA’LIM MUASSASALARI O‘RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI 1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig‘afurovich

AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI 1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o‘g‘li

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна

SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLANILISHI 1371
Jalalova Dildora Jamolovna

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA 1375
Karshieva Marjona Alisher kizi

TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI 1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi

SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI 1384
Uzoqov Farhod G‘afforovich

SOLIQ MA’MURIYATCHILIGI MEXANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI 1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich

BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich

BUG‘DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI 1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug‘afforovna

RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI 1402
Muyassarzoda Fayziyeva

MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASH ORQALI AGRORESURSLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI 1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna

JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI 1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich

OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR 1425
Zakirova Oisha

ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ 1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA’MINOT JARAYONINING AHAMIYATI 1437
Nuraliyeva B.

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TEMIR YO‘L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI 1443
Raximov Xasan Shukurjonovich

XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA’LUMOTLAR TAHLILI VA MA’LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH 1450
Kurolov Maksud Obitovich

TA’LIM BOSHQARUVIDA ‘‘YASHIL KO‘NIKMALAR’’NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O‘TISHGA TAYYORLASH 1460
Esanova Shohida

НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ 1468
Хамзина Динара Рашатовна

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O‘RGANISH METODOLOGIYASI 1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich

QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA “YASHIL MENEJMENT” TIZIMINI JORIY ETISH 1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI 1487
Marimova Indira Rasul qizi

DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O‘ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELI 1492
Murodov Orif Jumayevich

TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIJ TAJRIBASI 1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna

ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ 1502
Киличева Ф.Б.

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARGA TA’SIRINI BAHOLASH 1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Qudratov Islom Ismat o‘g‘li

ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН 1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 1516
Мансуров Обид Зайнидинович

REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR 1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich

TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI 1528
Jalilov Jamshid G‘anijonovich

SOLIQ MA’MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI 1534
To‘rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich

YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK 1540
Yaxshibayev Ulug‘bek Shavkat o‘g‘li

THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION 1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna

MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI 1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o‘g‘li

MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi Qashqadaryo viloyat hududiy bo‘limi boshlig‘i
E-mail: zafargis@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mahalliy davlat organlarida boshqaruv va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida uchrayotgan muammolar hamda ularni raqamlashtirish orqali hal etish zarurati va istiqbollari tahlil qilingan. An’anaviy tizimda hujjatlar aylanishining ko‘p bosqichliligi, qog‘oz shaklidagi jarayonlar, byurokratik to‘siqlar va korrupsiya xavflari davlat xizmatlari samaradorligini pasaytirayotgan omillar sifatida qayd etilgan.

Maqolada 2025-yil 16-sentyabrda qabul qilingan PQ-286-sonli Prezident qarori asosida amalga oshirilayotgan “Raqamli hukumat” va “Raqamli mahalla” loyihalarining ahamiyati, maqsadlari hamda kutilayotgan natijalari keng yoritilgan. Shuningdek, Estoniya va Finlyandiya kabi ilg‘or davlatlar tajribasi asosida O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mahalliy boshqaruv, raqamlashtirish, elektron xizmatlar, davlat organlari, axborot tizimi, “Raqamli hukumat”, “Raqamli mahalla”, O‘zbekiston, xalqaro tajriba, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. This article analyzes the challenges encountered in the management and service delivery processes of local government bodies in the Republic of Uzbekistan, emphasizing the necessity and prospects of addressing these issues through digitalization. The multi-stage document circulation, paper-based procedures, bureaucratic barriers, and corruption risks in the traditional system are identified as factors that reduce the efficiency of public services.

The article provides an in-depth overview of the “Digital Government” and “Digital Mahalla” projects implemented under Presidential Decree No. PQ-286 dated September 16, 2025, highlighting their significance, objectives, and expected outcomes. Based on the experience of leading countries such as Estonia and Finland, the article presents concrete proposals and recommendations for accelerating digital transformation in Uzbekistan.

Key words: local governance, digitalization, electronic services, government agencies, information system, “Digital Government”, “Digital Mahalla”, Uzbekistan, international experience, economic efficiency.

Аннотация. В данной статье проанализированы проблемы, возникающие в процессах управления и предоставления услуг в местных государственных органах Республики Узбекистан, а также необходимость и перспективы их решения посредством цифровизации. Отмечено, что многоступенчатость документооборота в традиционной системе, бумажные процессы, бюрократические барьеры и риски коррупции являются факторами, снижающими эффективность государственных услуг.

В статье подробно освещаются реализуемые на основе Постановления Президента № ПҚ-286 от 16 сентября 2025 года проекты «Цифровое правительство» и «Цифровая махалля», их значимость, цели и ожидаемые результаты. На основе опыта передовых стран, таких как Эстония и Финляндия, представлены конкретные предложения и рекомендации по ускорению цифровой трансформации в Узбекистане.

Ключевые слова: местное самоуправление, цифровизация, электронные услуги, государственные органы, информационная система, «Цифровое правительство», «Цифровая махалля», Узбекистан, международный опыт, экономическая эффективность.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining mahalliy davlat organlarida hujjat aylanishi va qaror qabul qilish jarayonlari ko‘p bosqichli bo‘lib, har bir bosqichda hujjatlar alohida ko‘rib chiqiladi, tasdiqlanadi va keyingi bo‘limlarga yuboriladi. Masalan, fuqaroning uy-joyga oid murojaatini ko‘rib chiqish uchun mahalliy hokimlik, arxitektura, moliya va boshqa bir qator idoralarga murojaat qilish talab etiladi. Bu esa jarayonning ortiqcha cho‘zilishiga, xizmatlarning kechikishiga va aholining noroziligiga sabab bo‘ladi.

Qog‘ozga asoslangan ish yuritish xodimlarning ortiqcha vaqt sarflashiga, ma’muriy yuklamaning oshishiga hamda byurokratik to‘siqlarning kuchayishiga olib keladi. Bunday holatlar davlat xizmatlarining tezkorligi va samaradorligini pasaytiradi, shu bilan birga, fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini susaytiradi.

An’anaviy boshqaruv tizimida hujjatlarning qo‘lda yuritilishi va nazorat mexanizmlarining yetarli darajada shaffof bo‘lmasligi ayrim hollarda korrupsion holatlarning yuzaga kelishiga sharoit yaratadi. Masalan, ijtimoiy nafaqa ajratish, yer uchastkalarini taqsimlash yoki ruxsatnomalar berish jarayonlarida elektron nazorat tizimining yo‘qligi, ma’lumotlarning markazlashmaganligi moliyaviy xatoliklar va noaniqliklarga sabab bo‘ladi. Shu bois, jarayonlarda avtomatlashtirish va raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish zarurati ortib bormoqda.

An’anaviy boshqaruv shakllarida aholiga ko‘rsatiladigan ko‘plab xizmatlar zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi. Fuqarolardan davlat idoralariga shaxsan murojaat qilish talab qilinadigan holatlar ko‘p bo‘lib, bu ayniqsa uzoq va chekka hududlarda yashovchi aholi uchun muammoli vaziyatlar yaratadi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatishda kechikishlar, murakkab talablar va ortiqcha hujjat aylanishi aholining ruhan charchashiga hamda vaqt yo‘qotishiga olib keladi. Bunday holatlar fuqarolarning ijtimoiy faolligini pasaytiradi va iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ba’zi hollarda yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonlari texnik infratuzilmaning yetishmasligi, xodimlarning malaka darajasi pastligi yoki moliyaviy resurslarning cheklanganligi sababli sust kechmoqda. Masalan, ayrim viloyatlarda elektron arxivlash tizimining yo‘qligi hujjatlarning yo‘qolishiga, ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonining sekinlashishiga va boshqaruv samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda global iqtisodiyot va jamiyat hayoti tez sur’atlar bilan raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Har bir davlat, xususan, O‘zbekiston ham o‘zining raqobatbardoshligini saqlab qolish va oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, mahalliy davlat organlarini raqamlashtirish davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentyabrda qabul qilingan “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-286-son qarori[1] “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mamlakatda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlarini yanada jadallashtirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi [1].

Mazkur hujjat mahalliy davlat organlarida, iqtisodiyot tarmoqlarida va xizmat ko‘rsatish sohalarida elektron xizmatlar tizimini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini mustahkamlash, ma’lumotlar almashinuvi va idoralararo integratsiyani ta’minlash kabi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, qarorda raqamli boshqaruv orqali byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, fuqarolarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, hamda davlatga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash kabi ustuvor maqsadlar belgilab berilgan.

Ustuvor loyihalar va elektron xizmatlar

Qarorga muvofiq, “Raqamli hukumat” dasturi doirasida 41 ta ustuvor loyiha amalga oshiriladi. Elektron davlat xizmatlarining ulushi 70 foizga yetkazilishi, mahallalarda kamida 30 turdagi davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi joriy etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, fuqarolar va tadbirkorlar uchun 100 dan ortiq elektron xizmat turlari yaratiladi, ularning 10 tasi “proaktiv” va “kompozit” shaklga o‘tkaziladi. Bundan tashqari, 19 ta hayotiy vaziyatda (masalan, fuqarolik, mulk, nikoh va ijtimoiy xizmatlarga oid holatlar) fuqarolarga avtomatik tarzda xabar yuborish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Telekommunikatsiya va infratuzilmani rivojlantirish

Qarorda aloqa infratuzilmasini kengaytirish bo‘yicha aniq ko‘rsatkichlar belgilangan: 66 ming kilometr optik tolali aloqa liniyasi va 2 284 ta tayanch stansiyani ishga tushirish nazarda tutilgan. Shu bilan birga, 100 dan ortiq axborot tizimi va platformalarni joriy etish rejalashtirilgan.

Fuqarolar bilan xizmatlar va integratsiya

2025-yil 1-noyabrdan boshlab mobil aloqa operatorlari, tijorat banklari va to‘lov tashkilotlariga o‘z mobil ilovalari orqali Yagona portaldagi pulli elektron davlat xizmatlarini taqdim etish imkoniyati yaratiladi. 2025-yil

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.09.2025 yildagi PQ-286-son https://lex.uz/uz/docs/-7730357

1-dekabrdan boshlab esa nodavlat notijorat tashkilotlariga “Idoralararo integratsiyalashuv platformasi” orqali elektron hamkorlik qilish huquqi beriladi. 2026-yil 1-yanvardan fuqarolarning ijtimoiy yordamga oid murojaatlari hamda mahalla aholisi ma’lumotlari “Raqamli mahalla” platformasi orqali yuritilishi belgilangan.

Maxsus sohalar bo‘yicha chora-tadbirlar

Qarorga muvofiq, ko‘chmas mulk ma’lumotlari “UZKAD” axborot tizimiga o‘tkaziladi va yagona manzil reestri 2026-yil oxirigacha shakllantiriladi.

Sog‘liqni saqlash sohasida esa sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda “Shifokorning raqamli yordamchisi” dasturi joriy etilishi nazarda tutilgan.

Mazkur qaror ijrosining natijasida:

• Mahalliy davlat organlari faoliyatida tezkorlik, shaffoflik va izchillik oshadi;

• Byurokratik to‘siqlar qisqaradi, fuqarolar uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengayadi;

• Ma’lumotlar almashuvi avtomatlashtiriladi, proaktiv xizmatlar aholining ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini beradi;

• Telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanishi hududlarda raqamli bo‘shliqlarni kamaytiradi;

• Ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash, mahalla boshqaruvi va ko‘chmas mulk sohalarida xizmatlar sifati oshadi.

Qaror ijrosini ta’minlashda bir qancha muammolarni hisobga olish zarur:

• Texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani (internet tezligi, optik aloqa liniyalari, mobil qamrov);

• Xodimlarning raqamli savodxonligi va yangi tizimlarni o‘zlashtirishga tayyorlik darajasi;

• Fuqarolarning raqamli madaniyati va elektron xizmatlardan foydalanish ko‘nikmalari;

• Kiberxavfsizlik, ma’lumotlar himoyasi va shaxsiy ma’lumotlarni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlar;

• Hududlararo raqamli tafovutni kamaytirish, ya’ni raqamli tenglikni ta’minlash.

Raqamlashtirish — bu nafaqat texnologik, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini tubdan o‘zgartiruvchi jarayondir. Raqamli boshqaruv va elektron xizmatlar jamiyatda:

• Axborotga tezkor va erkin kirish imkoniyatini ta’minlaydi, bu esa fuqarolar va biznes subyektlarining faoliyatini yengillashtiradi;

• Ma’muriy xizmatlar sifatini oshiradi, byurokratiya va korrupsiyaga qarshi samarali vosita sifatida xizmat qiladi;

• Ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi, chunki onlayn xizmatlar barcha fuqarolar uchun teng imkoniyat yaratadi;

• Ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlik sohalarida innovatsion yechimlarni joriy etish orqali aholining hayot sifatini oshiradi.

Shunday qilib, raqamlashtirish jamiyatni ma’lumotga asoslangan, samarali va shaffof boshqaruv tizimi sari yetaklaydi. Bu esa O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mahalliy davlat organlarining raqamlashtirish jarayonlari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri va boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar tahliliy, qiyosiy hamda statistik yondashuvlar asosida o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli transformatsiya jarayonining davlat xizmatlari sifati, byurokratiya darajasi va korrupsiyani kamaytirishdagi samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda ikkinchi darajali ma’lumot manbalari — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentyabrda qabul qilingan PQ–286-son qarori, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlari hamda My.gov.uz, e-Estonia, Suomi.fi, DESI indeksi kabi xalqaro platformalardan olingan ochiq ma’lumotlar tahlil qilindi.

Metodik asos sifatida qiyosiy tahlil usuli qo‘llanilib, O‘zbekiston tajribasi Estoniya, Finlyandiya, Qozog‘iston va boshqa ilg‘or davlatlar raqamli boshqaruv tizimlari bilan solishtirildi. Shuningdek, jadval, raqamli ko‘rsatkichlar va foizli o‘lchovlar orqali raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, byurokratiya qisqarishi va korrupsiya kamayish darajasi baholandi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda raqamli iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash, dinamik tahlil va empirik kuzatuv usullari qo‘llanildi. Ushbu yondashuvlar asosida raqamlashtirish jarayonining ijtimoiy va iqtisodiy samaralari kompleks baholandi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o‘z iqtisodiyotlari va boshqaruv tizimlarini raqamlashtirish orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirishga intilmoqda. Raqamli transformatsiya quyidagi yo‘nalishlarda ijobiy natija beradi:

• Iqtisodiy samaradorlik va byurokratiyaning qisqarishi – xizmatlar tezroq, kam xarajat bilan ko‘rsatiladi, bu biznes muhitini yaxshilaydi;

• Yangi ish o‘rinlari va innovatsion loyihalar – IT sohasida startaplar va yangi texnologiyalar rivojlanadi;

• Global bozorga kirish imkoniyatlari kengayadi – raqamlashtirilgan hududlar xalqaro investitsiyalar uchun jozibador bo‘ladi;

• Fuqarolar va biznes uchun qulay muhit yaratiladi – elektron xizmatlar orqali vaqt va mablag‘ tejaladi, iqtisodiyotning umumiy samaradorligi ortadi.

Xalqaro tajriba

Ko‘plab ilg‘or davlatlar, xususan, Yevropa mamlakatlari, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish orqali o‘zlarining global maydondagi iqtisodiy va ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga erishmoqda. Ayniqsa, Estoniya dunyoda raqamli davlat modelini muvaffaqiyatli joriy etgan mamlakat sifatida tan olingan. Ushbu model orqali mamlakat:

• YAIMning 2 foizi miqdorida iqtisodiy tejamkorlikka erishgan;

• Davlat xizmatlarining 99 foizini onlayn shaklda taqdim etadi;

• Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori samaradorlikni namoyon qilgan.

Bunday yondashuv natijasida Estoniya raqamli boshqaruv tizimi orqali iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga muvaffaq bo‘lgan.

2024-yil holatiga ko‘ra, Estoniya davlat xizmatlarining 100 foizini raqamlashtirgan, shu jumladan ajralish arizalarini ham onlayn shaklda topshirish imkoniyati mavjud. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, aholining 53 foizdan ortig‘i ushbu xizmatdan raqamli shaklda foydalanadi. Bundan tashqari:

• Soliq to‘lovlarining 98 foizi elektron shaklda amalga oshiriladi;

• 2002-yildan joriy etilgan raqamli identifikatsiya (e-ID) tizimi orqali fuqarolar soliqlarni to‘lash, bank operatsiyalarini bajarish va elektron ovoz berishda faol foydalanmoqda;

• 2023-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Estoniya xonadonlarining 93,2 foizi internetga ulangan;

• Aholining 62,6 foizi asosiy raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich Yevropa Ittifoqining o‘rtacha darajasidan yuqoridir [2].

Finlyandiya tajribasi

Finlyandiya ham raqamli iqtisodiyot va boshqaruv sohasida Yevropa miqyosida yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

• Aholining 82 foizi asosiy raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lib, bu Yevropa Ittifoqidagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir;

• Ishchi kuchining 7,6 foizi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) mutaxassislari sifatida faoliyat yuritadi;

• 2023-yilga kelib, mamlakatdagi xonadonlarning 76,9 foizi yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulangan;

• Davlat xizmatlarining katta qismi raqamli shaklda taqdim etiladi, bu esa xizmat ko‘rsatish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [3] (1-jadval).

1-jadval. Raqamlashtirish jarayonlari: qisqacha taqqoslov

Davlat / Mamlakat	Raqamli xizmatlar ulushi	e-ID tizimi	Onlayn xizmatlar ulushi (%)	Yirik loyihalar / Platformalar
Estoniya	Juda yuqori	Mavjud	99%	e-Estonia, X-Road, e-Residency
Finlyandiya	Juda yuqori	Mavjud	95%	Suomi.fi, AuroraAI
Daniya	Juda yuqori	Mavjud	97–98%	Digital Denmark 2030, NemID
O‘zbekiston	O‘rta darajada	Boshlang‘ich bosqichda	40–45%	“Raqamli O‘zbekiston – 2030”, My.gov.uz
Qozog‘iston	Yuqori	Mavjud	70% dan ortiq	eGov.kz, “Digital Kazakhstan”
Qirg‘iziston	O‘rta darajada	Mavjud	~35%	Tunduk, Sanarip Kyrgyzstan
Tojikiston	Boshlang‘ich bosqich	Mavjud emas	~18%	e-Tajikistan konsepsiyasi
Turkmaniston	Juda past	Mavjud emas	<10%	Cheklangan hajmdagi raqamli xizmatlar mavjud

2-jadval. Iqtisodiy samaradorlik va natijalar: raqamli tahlil

Davlat	Raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi hissasi	Byurokratiya qisqarishi (%)	Korrupsiya kamayishi
Estoniya	7.2%	~30–35%	Juda past
Finlyandiya	6.5%	~25%	Juda past
Daniya	6.8%	~30%	Past
O‘zbekiston	2.1% (2024)	~15–20%	Raqamli nazorat oshmoqda
Qozog‘iston	3.5%	~25%	Pasaygan
Qirg‘iziston	~1.8%	~10–15%	Raqamli izchillik yo‘q
Tojikiston	<1%	Sezilarli emas	Yuqori xavf
Turkmaniston	Statistik ma’lumot yo‘q	Noaniq	Yopiq tizim

Yevropa davlatlari raqamlashtirish jarayonini kompleks yondashuv, samarali qonunchilik bazasi va ilg‘or texnologik innovatsiyalar orqali amalga oshirmoqda [4]. Bunday tizimli yondashuv ularga davlat xizmatlari sifatini oshirish, iqtisodiy tejamkorlikka erishish hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda yuqori natijalar ko‘rsatish imkonini bermoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O‘zbekiston va Qozog‘iston, so‘nggi yillarda raqamli islohotlarni jadallik bilan amalga oshirmoqda [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy davlat organlarini raqamlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish va davlat xizmatlari sifatini yangi bosqichga olib chiqishning eng muhim vositalaridan biridir. Raqamlashtirish orqali xarajatlar kamayadi, boshqaruv tizimi tezkorlashadi, inson omiliga bog‘liq xatoliklar hamda korrupsiya xavfi sezilarli darajada qisqaradi. Natijada davlat xizmatlari sifati tubdan yaxshilanadi, aholiga qulayliklar yaratiladi va fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi. Mazkur jarayon nafaqat byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish imkonini beradi, balki raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning keng joriy etilishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, mahalliy boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va samarali muloqot muhitini ta’minlash mumkin. Mahalliy davlat organlarini raqamlashtirish zamonaviy jamiyatni shakllantirish va mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish yo‘lida strategik ahamiyatga ega yo‘nalishdir. Raqamli boshqaruv tizimining joriy etilishi orqali davlat xizmatlari sifati oshadi, innovatsiyalar rivojlanadi va xalqaro maydonda mamlakatning obro‘-e’tibori mustahkamlanadi. Shu sababli raqamlashtirish jarayoni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida izchil amalga oshirilishi zarur. An’anaviy boshqaruv tizimida mavjud bo‘lgan jarayonlarning ortiqcha byurokratikligi, ma’lumot almashishning sustligi va nazorat mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi davlat xizmatlari samaradorligini pasaytiradi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga to‘sqinlik qiladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun raqamlashtirish va boshqaruv tizimlarini avtomatlashtirish zarur. Natijada ma’lumotlar almashinuvi tezlashadi, byurokratik to‘siqlar kamayadi, korrupsiya xavfi sezilarli darajada pasayadi, xizmatlar sifati va tezkorligi oshadi, resurslardan oqilona hamda samarali foydalaniladi va fuqarolar bilan o‘zaro muloqot ochiq hamda qulay shaklga ega bo‘ladi. Shunday qilib, mahalliy davlat organlarini raqamlashtirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki aholining hayot sifatini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va davlat boshqaruvining zamonaviy, shaffof hamda barqaror tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentyabrda qabul qilingan “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–286-son qarori. — [Elektron manba]: https://lex.uz/docs/7730357
2. e-Estonia. (2024). Estonia’s Digital Society. — Estoniya Respublikasining raqamli davlat boshqaruvi modeli va elektron xizmatlar tizimi haqida rasmiy axborot portali. — [Elektron manba]: https://e-estonia.com
3. Suomi.fi – Finlyandiya elektron xizmatlar portali. (2024). Finlyandiya raqamli transformatsiya strategiyasi va AuroraAI platformalari. — Finlyandiya Respublikasining davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha rasmiy manbasi. — [Elektron manba]: https://www.suomi.fi
4. European Commission. (2023). Digital Economy and Society Index (DESI). — Yevropa Ittifoqida raqamli iqtisodiyot va jamiyat indeksining yillik tahlili. — Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali — My.gov.uz ma’lumotlaridan foydalanildi. — [Elektron manba]: https://my.gov.uz
5. Qozog‘iston Respublikasi “Digital Kazakhstan” dasturi. — Rasmiy elektron hukumat portali orqali taqdim etilgan raqamli transformatsiya strategiyasi. — [Elektron manba]: https://egov.kz



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2025. № 10

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz